



**“O‘ZTRANSGAZ” AJ VA UNING TARKIBIY  
TUZILMALARIDA KORRUPSIYAGA QARSHI  
KURASHISH TARTIB-TAOMILLARNING  
SAMARADORLIGINI  
MONITORING VA NAZORAT QILISH  
USLUBIYOTI**

**UTGH**  
**00154269-72:2026**

“O‘ztransgaz” AJning  
2026-yil “12” 03 dagi 32 -son  
buyrug‘iga 6 -ilova



**TASDIQLAYMAN**  
**“O‘ztransgaz” AJ**  
**Boshqaruv raisi v.b.**  
**A.Sh. Isakov**  
2026-yil “04” 03

**“O‘ZTRANSGAZ” AJ VA UNING TARKIBIY TUZILMALARIDA  
KORRUPSIYAGA QARSHI KURASHISH TARTIB-TAOMILLARNING  
SAMARADORLIGINI MONITORING VA NAZORAT QILISH  
USLUBIYOTI**

Hujjatning amal qilish muddati: 2026 yil “___” ___ dan 2031 yil “___” ___ gacha	Maqom: <input checked="" type="checkbox"/> Amaldagi <input type="checkbox"/> Eskirgan	Tahrir ___ Nusxa raqami ___  (hujjatni jo‘natishda hujjat ishlarini boshqarish bo‘yicha mas‘ul shaxsning imzosi)
---	---	--



**“O‘ZTRANSGAZ” AJ VA UNING TARKIBIY  
TUZILMALARIDA KORRUPSIYAGA QARSHI  
KURASHISH TARTIB-TAOMILLARNING  
SAMARADORLIGINI  
MONITORING VA NAZORAT QILISH  
USLUBIYOTI**

**UTGH  
00154269-72:2026**

**“O‘ZTRANSGAZ” AJ  
IJROIYA APPARATINING KELISHUV VARAQASI**

**KELISHILDI:**

**Boshqaruv raisining ishlab chiqarish  
bo‘yicha birinchi o‘rinbosari –  
Bosh muhandis**

**M.N. Raxmonov**

**Boshqaruv raisining moliya-iqtisodiyot va  
transformatsiya masalalari bo‘yicha  
birinchi o‘rinbosari v.b.**

**B.M. Umarov**

**Boshqaruv raisining investitsiya va  
kooperatsiya bo‘yicha o‘rinbosari v.b.**

**Sh.I. Safarov**

**Boshqaruv raisining qurilish  
va transport bo‘yicha o‘rinbosari**

**B.B. Sobirov**

**Boshqaruv raisining maslahatchisi**

**A.S. Umarov**

**Yuridik bo‘limi boshlig‘i**

**Sh.P. Ulugxujayev**

**Komplaens-nazorat bo‘limi  
boshlig‘i**

**O.Yu. Ismatov**

**Metodologiya bo‘limi boshlig‘i**

**D.B. Alimova**



**MUNDARIJA**

<b>1. Umumiy qoidalar .....</b>	<b>5</b>
<b>2. Monitoring va nazorat o‘tkazish yo‘nalishlari va tadbirlari .....</b>	<b>7</b>
<b>3. Idoraviy korrupsiyaga qarshi tizim monitoringini o‘tkazish tartibi.....</b>	<b>8</b>
<b>4. Jamiyatdagi korrupsiyaga qarshi tizimning nazoratini amalga oshirish .....</b>	<b>9</b>
<b>5. Yakuniy qoidalar.....</b>	<b>13</b>
<b>1-ILOVA “O‘ztransgaz” AJ, uning hududiy va tarkibiy bo‘linmalarida korrupsiyaga qarshi tartib-taomillarning samaradorligini monitoring va nazorat qilish TIZIMI .....</b>	<b>14</b>

## 1. Umumiy qoidalar

1. Mazkur Uslubiyot “O‘ztransgaz” AJ va uning tarkibiy tuzilmalarining (keyingi o‘rinlarda – Jamiyat) ichki normativ hujjati hisoblanadi va Jamiyatda korrupsiyaga qarshi kurashish bo‘yicha belgilangan tartib-taomillar va korrupsiyaga qarshi kurashish bo‘yicha qabul qilingan ichki normativ hujjatlar bajarilishini monitoring va nazorat qilish tartibi hamda standartlarini belgilaydi.

2. Mazkur Uslubiyotda monitoring deganda korrupsiyaga qarshi kurashish tizimining amal qilishi samaradorligini baholash hamda Jamiyat faoliyatida korrupsiyaviy xavf-xatarlarni kamaytirish maqsadida baholash, nazorat deganda tanqidiy o‘rganish ko‘rinishida amalga oshirilishi mumkin bo‘lgan korrupsiyaga qarshi kurashish tizimi holatining tahlili tushuniladi.

3. Mazkur Uslubiyot O‘zbekiston Respublikasining qonun hujjatlari, Jamiyatning ichki normativ hujjatlari talablariga muvofiq, shuningdek, korrupsiyaga qarshi kurashish bo‘yicha ilg‘or xalqaro amaliyotni hisobga olgan holda ishlab chiqilgan.

4. Korrupsiyaga qarshi kurashish tartib-taomillarining samaradorligini monitoring va nazorat qilish (keyingi o‘rinlarda – monitoring va nazorat) Jamiyatning Komlaens-nazorati bo‘limi (keyingi o‘rinlarda – ichki nazorat tuzilmasi) tomonidan amalga oshiriladi.

5. Monitoring va nazoratning asosiy maqsadlari quyidagilar hisoblanadi:

- Jamiyat faoliyatining korrupsiyaga qarshi qabul qilingan talablarga muvofiqligini tekshirish;

- korrupsiyaga oid va boshqa huquqbuzarliklarning oldini olish, korrupsiyaga qarshi amalga oshirilayotgan chora-tadbirlarning yetarliligi va korrupsiyaga qarshi tadbiq etilgan tartib-taomillarning samaradorligini oshirish va baholash;

- kamchiliklarni aniqlash va ularni bartaraf etish orqali Jamiyatning korrupsiyaga qarshi komplaens tizimini takomillashtirish;

- Jamiyatning korrupsiyaga qarshi ichki normativ hujjatlari va tartib-taomillariga rioya qilinishini tahlil qilish;
- Jamiyat faoliyatida korrupsiya xavf-xatarlar indikatorlarini aniqlash;
- manfaatlar to‘qnashuvini o‘z vaqtida aniqlash va tartibga solishga qaratilgan chora-tadbirlarning amalga oshirilishini nazorat qilish;
- Jamiyatning korrupsiya xavf-xatarlarini kamaytirishga qaratilgan boshqa tartib-taomillarining bajarilmaganligini aniqlash;
- Jamiyatda avvalgi o‘tkazilgan monitoring natijalari va korrupsiyaga qarshi kurashish tartib-taomillari, xizmat tekshiruvlari, ichki audit tekshiruvlari, boshqa nazorat choralari va ular doirasida taqdim etilgan tavsiyalarga rioya qilinishi, shuningdek, korrupsiyaga qarshi kurashish rejasida tasdiqlangan boshqa tadbirlarning amalga oshirilishini nazorat qilish.

6. Ushbu Uslubiyot maqsadlarida quyidagi asosiy tushunchalardan foydalaniladi:

**kontragent (shartnomaviy sherik)** – Jamiyat bilan shartnomaviy munosabatlarga (mehnat munosabatlari bundan mustasno) kirishgan har qanday yuridik yoki jismoniy shaxs;

**korrupsiyaviy xarakterli harakatlar** – xodim tomonidan bevosita yoki bilvosita shaxsan yoki uchinchi shaxslar orqali pora beruvchi manfaatlari yo‘lida harakat yoki harakatsizlik uchun moddiy manfaatdor bo‘lishi, shu jumladan pul, qimmatbaho qog‘oz, boshqa ko‘rinishdagi mulk va mulkiy huquqlar, mulkiy harakterdagi xizmatlar olish, talab qilish, undirish, taklif qilish yoki berish, pora berish va/yoki olish yoki bunda vositachilik qilishda, rasmiyatchiliklarni soddalashtirish uchun to‘lovlar undirish (pora olish) va boshqa noqonuniy maqsadlarda o‘z xizmat vazifalaridan noqonuniy foydalanish;

**korrupsiya** – shaxsning o‘z mansab yoki xizmat mavqeidan shaxsiy manfaatlarini yoxud o‘zga shaxslarning manfaatlarini ko‘zlab moddiy yoki nomoddiy

naf olish maqsadida qonunga xilof ravishda foydalanishi, xuddi shuningdek bunday nafni qonunga xilof ravishda taqdim etish;

**korrupsiyaga qarshi tizim** – korrupsiyaviy harakatlarning, O‘zbekiston Respublikasining korrupsiyaga qarshi kurashish sohasidagi qonunchiligi va Jamiyatning korrupsiyaga qarshi kurashish masalalariga doir ichki hujjatlari buzilishining oldini olish, Jamiyat xodimlari tomonidan o‘z faoliyatini professional va xulq-atvor jihatdan yuksak darajada amalga oshirilishini ta‘minlash bo‘yicha kompleks chora-tadbirlar;

**relevant xabar** – Jamiyatdagi korrupsiyaviy xatti-harakatlar va (yoki) manfaatlar to‘qnashuvi haqidagi axborotdan iborat bo‘lgan axborot;

**xodim** – Jamiyat bilan mehnat munosabatlariga kirishgan shaxs.

## 2. Monitoring va nazorat o‘tkazish yo‘nalishlari va tadbirlari

7. Jamiyatda quyidagi asosiy yo‘nalishlar bo‘yicha korrupsiyaga qarshi monitoring o‘tkaziladi:

- idoraviy korrupsiyaga qarshi tizim tizimining aktualligi va uning qonunchilik talablari, shu jumladan, xalqaro standartlar talablariga muvofiqligi monitoringi;

- ommaviy axborot vositalarida Jamiyat xodimlarining yoki uning kontragentlarining korrupsiyaviy hatti-harakatlari to‘g‘risidagi axborot mavjudligi monitoringi;

- Jamiyat xodimlarining korrupsiyaga qarshi asosiy tamoyil va talablardan xabardorligi monitoringi.

8. Jamiyatdagi korrupsiyaga qarshi tizimning **nazorati** quyidagi yo‘nalishlar bo‘yicha amalga oshiriladi:

- korrupsiyaga qarshi dasturlar, yo‘l xaritalari ijrosi ustidan nazorat;

- Jamiyatdagi korrupsiyaga qarshi talablar va tartib-taomillarga rioya etilishi ustidan nazorat.

### **3. Idoraviy korrupsiyaga qarshi tizim monitoringini o‘tkazish tartibi**

9. Idoraviy korrupsiyaga qarshi kurashish tizimining aktualligi va uning qonunchilik talablari, shu jumladan, xalqaro standartlar talablariga muvofiqligi monitoringi Komplaens-nazorat bo‘limi tomonidan doimiy ravishda O‘zbekiston Respublikasining korrupsiyaga qarshi kurashga oid qonunchiligi va boshqa korrupsiyaga oid talablarni (masalan, O‘zbekiston Respublikasi korrupsiyaga qarshi kurashish Milliy kengashi qarorlari, Korrupsiyaga qarshi kurashish agentligining ko‘rsatmalari, xalqaro va chet el tashkilotlari tavsiyalari) kuzatib borish yo‘li bilan amalga oshiriladi.

Bunda, zarurat tug‘ilganda Komplaens-nazorat bo‘limi monitoring yakunlari bo‘yicha Jamiyatdagi korrupsiyaga qarshi tizimini takomillashtirish, ichki idoraviy hujjatlarni o‘zgartirish yoki yangi hujjatlar, chora-tadbirlar loyihasini ishlab chiqadi va tasdiqlash uchun Jamiyat rahbariga kiritadi.

10. Ommaviy axborot vositalarida Jamiyat xodimlarining korrupsiyaviy hatti-harakatlari to‘g‘risidagi axborot mavjudligi monitoringi, tashkilot axborot xizmati tomonidan doimiy ravishda ommaviy axborot vositalari va ijtimoiy tarmoqlarni kuzatish orqali amalga oshiriladi.

Monitoring natijasida xodimga aloqador relevant xabar aniqlanganda Jamiyatdagi xodimlarining korrupsiyaviy xatti-xarakatlari va odob-ahloq qoidalarini buzish holatlari ustidan xizmat tekshiruvlari o‘tkazish bo‘yicha ichki idoraviy hujjatda belgilangan tartibda harakat qilinadi.

11. Jamiyat xodimlarining asosiy korrupsiyaga qarshi tamoyillar va talablar to‘g‘risida xabardorligini tekshirish Komplaens-nazorat bo‘limi tomonidan doimiy ravishda amalga oshiriladi.

12. O‘tkazilgan monitoring va uning natijalari to‘g‘risidagi axborot 1-ilovaga muvofiq shaklda jurnalga kiritiladi.

#### 4. Jamiyatdagi korrupsiyaga qarshi tizimning nazoratini amalga oshirish

13. Jamiyatning korrupsiyaga qarshi dasturlar, yo‘l xaritalari ijrosi ustidan nazorat korrupsiyaga qarshi kurash tizimining holati to‘g‘risidagi hisobotni shakllantirish va taqdim etish bo‘yicha ichki idoraviy hujjatga muvofiq hisobot tuzish davomida amalga oshiriladi.

14. Korrupsiyaga qarshi talablar va tartib-taomillarga rioya etilishi ustidan nazorat Jamiyatdagi korrupsiyaga qarshi kurashish tizimini tashkil qiladigan funktsiya, tartib-taomillar, korrupsiyaga qarshi kurashish maqsadida korrupsiyaviy xavf-xatarlarga eng ko‘p moyil bo‘lgan munosabatlarga nisbatan Jamiyatda joriy etiladigan va amalga oshiriladigan chora-tadbirlarga nisbatan amalga oshiriladi.

15. Jamiyat faoliyatining o‘ziga xos xususiyatlarini inobatga olgan holda Korrupsiyaga qarshi talablar va tartib-taomillarga rioya etilishi ustidan nazorat perimetriga quyidagi xavfli jarayonlar kiritilishi mumkin:

- xaridlar bo‘yicha faoliyat;
- sovg‘alar, xizmat safarlari xarajatlari;
- faoliyati nazorat qilinuvchi tashkilotlar bilan o‘zaro hamkorlik;
- moliyaviy mablag‘larni sarflanishi;
- personalni boshqarish (kadrlarni tanlash, tayinlash, lavozimini xizmat) oshirish, mukofotlash va boshqa ko‘rinishdagi rag‘batlantirish).

16. Korrupsiyaga qarshi talablar va tartib-taomillarga rioya etilishi ustidan nazorat olib boriladigan faoliyat jarayonlarining ko‘rsatilgan ro‘yxati har yili korrupsiyaga oid xavf-xatarlarni baholash natijalariga ko‘ra Komplaens-nazorat bo‘limi tomonidan ko‘rib chiqiladi va agar lozim bo‘lsa, korrupsiya nuqtai nazaridan xavfli bo‘lgan yoki Jamiyat uchun dolzarb bo‘lmagan jarayonlar nuqtai-nazaridan, Jamiyat rahbari va Jamiyatning tegishli bo‘limlari bilan kelishilgan holda, o‘zgartirish va qo‘shimchalar kiritish orqali tuzatish kiritiladi.

17. Bir yoki bir nechta xavfli jarayonlarga nisbatan korrupsiyaga qarshi nazorat davriy oraliqda, lekin Jamiyatning korrupsiyaga qarshi monitoring va nazorat rejasiga muvofiq har chorakda kamida 1 (bir) marta amalga oshiriladi.

18. Korrupsiyaga qarshi talablar va tartib-taomillarga rioya etilishi ustidan nazorat rejasi ikki kalendar yilga mo‘ljallab Komplaens-nazorat bo‘limi tomonidan joriy yilning 15 yanvariga qadar shakllantiriladi va ushbu Uslubiyotda ko‘rsatilgan (15 va 16-bandlar) Jamiyatning barcha jarayonlarini, tekshiriladigan davri va tekshiruv muddatlarini o‘z ichiga olishi kerak. Shu bilan birga, tegishli chorakda tekshirilishi kerak bo‘lgan xavf-xatar jarayonlarining ketma-ketligi va taqsimlanish jarayoni Jamiyatning korrupsiyaviy xavf-xatarlarni aniqlash va baholash bo‘yicha ichki idoraviy hujjatida ko‘rsatilgan, mehnat resurslari bilan ta‘minlagan holda qonunbuzarliklar to‘g‘risida xabar berish kanallari yoki boshqa usullar orqali, rahbariyatdan olingan joriy ko‘rsatmalarga ko‘ra Komplaens-nazorat bo‘limi tomonidan belgilangan tartibda xavf-xatarlarni baholash natijalari bo‘yicha jarayonlarning qoldiq xavf darajasiga qarab amalga oshiriladi.

19. Tayyorlangan Korrupsiyaga qarshi talablar va tartib-taomillarga rioya etilishi ustidan nazorat rejasi 31-yanvarga qadar Jamiyat rahbari tomonidan tasdiqlanishi kerak.

20. Jamiyatda rejadan tashqari Korrupsiyaga qarshi talablar va tartib-taomillarga rioya etilishi ustidan nazorat choralari quyidagi hollarda amalga oshirilishi mumkin:

- agar Jamiyat rahbarining tegishli buyrug‘i mavjud bo‘lsa;
- Jamiyatda o‘tkazilgan boshqa tekshiruvlar (shu jumladan rasmiy tekshiruvlar, ichki auditorlik tekshiruvlari va boshqalar) davomida korrupsiya xatarlari aniqlanganda;
- Jamiyatning aloqa kanallari orqali tegishli xabar olingan taqdirda.

21. Nazorat tadbirlari tekshiruv shaklida o‘tkazilib, shu jumladan, korrupsiyaviy harakatlarning indikatorlarini aniqlashga qaratilgan bo‘lishi kerak, ular doirasida quyidagi tartib-taomillar ham amalga oshirilishi mumkin:

- Jamiyat tomonidan tuzilgan shartnomalar ma'lumotlarini tovarlarni qabul qilish va topshirish hujjatlari yoki xizmatlar ko'rsatish, ishlarni bajarish hujjatlari bilan solishtirish;

- tovarlarni haqiqiy sotib olish va ulardan foydalanish yoki xizmatlar ko'rsatish, ishlarning bajarilishi to'g'risidagi hisobotlarni ularning miqdori va sifati bilan tegishli shartnoma va hujjatlarda belgilangan tartibda solishtirish;

- Kontragentni yoki Jamiyatda ishlashga nomzodni tekshirish natijalariga asoslangan xulosada aks ettirishning to'liqligini, tahlil qilish uchun taqdim etilgan va axborot manbasining mazmunini qayd qiluvchi hujjatlar tarkibidagi ma'lumotlarning to'liqligini tekshirish, shuningdek, kontragent yoki ishlashga nomzodning shartnomada ko'rsatilgan ma'lumotlari va tekshiruvdan o'tgan shaxsning ma'lumotlarining muvofiqligini tekshirish;

- kontragent va Jamiyat, shu jumladan, muvofiqlashtiruvchi shaxslar tomonidan shartnoma boshqa ma'muriy hujjatlar imzolovchilarining vakolatlari mavjudligini tekshirish, taqdim etilgan hujjatlarni vakolatli shaxslarning imzolari bilan vizual ravishda mosligini solishtirish;

- kontragentning rekvizitlarini va tegishli shartnoma bo'yicha summani buxgalteriya hisobi ma'lumotlari bilan solishtirish;

- Jamiyat yoki kontragent xodimlari tomonidan taqdim etilgan hujjatlarida tuzatish, o'chirish, soxtalashtirish belgilari yo'qligini tekshirish;

- qonun hujjatlariga va Jamiyatning ichki hujjatlariga muvofiq talab etiladigan ommaviy axborot manbalarida e'lonlarning mavjudligini tekshirish (raqobatlashuv xarid qilish tartib-taomillarining e'lon qilinganligi to'g'risida ma'lumot va boshqalar.);

- paydo bo'layotgan masalalar bo'yicha qo'shimcha ma'lumot va izohlar olish uchun Jamiyat xodimlaridan tushuntirish xati olish va suhbatlar olib borish orqali oydinlik kiritish.

22. Nazorat tadbirlari yakunida ma'lumotnoma tuziladi (keyingi o'rinlarda- Ma'lumotnoma deb yuritiladi), u kirish, tavsiflovchi va yakuniy qismlarni o'z ichiga olishi lozim va ularda, odatda, quyidagilar ko'rsatiladi:

**Kirish qismida:**

- Har bir vazifa va tartib-taomillar uchun nazoratning boshlanish va tugallanish sanalari;

- nazorat o'tkazilgan vazifa va tartib-taomillar ro'yxati;

- nazorat o'tkazilgan vazifa va tartib-taomillarni bajarishga mas'ul bo'lgan bo'limlar va shaxslar ro'yxati;

- Hisobotni tuzish uchun mas'ul xodimning FISH.

**Tavsiflovchi qismida:**

- nazorat o'tkazilgan har bir vazifa va tartib-taomillar bo'yicha tanlov amalga oshirilishi usuli va tanlash hajmi;

- Jamiyat korrupsiyaga qarshi tizimining aniqlangan koidabuzilishlari va kamchiliklari, shu jumladan, kamchiliklarning paydo bo'lishi yoki rivojlanishiga hissa qo'shgan sabablar va sharoitlar.

**Yakuniy qismida:**

- nazorat o'tkazilgan har bir vazifa va tartib-taomillarda korrupsiya xatarlarining mavjudligi yoki mavjud emasligi haqida xulosa;

- O'zbekiston Respublikasi qonunchiligining buzilgan normalari, Jamiyatning ichki hujjatlari ko'rsatilgan asosiy qoidabuzarliklar;

- nazorat o'tkazish vaqtida aniqlangan qoidabuzarlik yoki kamchiliklarni bartaraf etish bo'yicha tavsiyalar.

23. Ma'lumotnomaga kiritilgan ma'lumotlarni tasdiqlovchi hujjatlar, havolalar va ko'chirmalar nusxalari(iloji bo'lsa) ilova qilinishi kerak.

24. Ma'lumotnoma Jamiyat rahbariga taqdim etiladi hamda o'tkazilgan nazorat to'g'risidagi ma'lumot 1-ilovaga muvofiq shaklda Jurnalga kiritiladi.

“O‘ZTRANSGAZ” AJ VA UNING TARKIBIY  
TUZILMALARIDA KORRUPSIYAGA QARSHI  
KURASHISH TARTIB-TAOMILLARNING  
SAMARADORLIGINI  
MONITORING VA NAZORAT QILISH  
USLUBIYOTI

UTGH  
00154269-72:2026



**5. Yakuniy qoidalar**

25. Monitoring va nazorat yakunlari bo‘yicha ishlab chiqilgan tavsiyalar Jamiyatning korrupsiyaga qarshi kurashish dasturiga kiritiladi.

26. Monitoring va nazorat yakunlari bo‘yicha ishlab chiqilgan tavsiyalarni bajarish, amalga oshirilgan ishlar haqida Komplaens-nazorat bo‘limiga tegishli ma’lumotlar taqdim etilishi uchun Jamiyat tarkibiy tuzilmalari va tashkilotlari rahbarlari shaxsan javobgardir.



“O‘ZTRANSGAZ” AJ VA UNING TARKIBIY  
TUZILMALARIDA KORRUPSIYAGA QARSHI  
KURASHISH TARTIB-TAOMILLARINING  
SAMARADORLIGINI  
MONITORING VA NAZORAT QILISH  
USLUBIYOTI

UTGH  
00154269-72:2026

1-ILOVA

“O‘ztransgaz” AJ, uning hududiy va tarkibiy tuzilmalarida korruptsiyaga qarshi tartib-taomillarning  
samaradorligini monitoring va nazorat qilish  
TIZIMI

T/r	Monitoring / tadbir turi	Chora-tadbirlarni monitoring qilish davriyligi (har chorakda/har yarim yilda/ doimiy)	Monitoring / nazoratni o‘tkazish sanasi	Kuzatuvni tafsiloti	Korruptsiyaga qarshi kurashish tizimini to‘g‘rilash choralari	Mas‘ul ijrochi	To‘g‘rilanadigan chora-tadbirlarning ijro muddati	Ijro holati
<b>Korruptsiyaga qarshi kurashish tizimining yetarlicligini baholash</b>								
1.	Idoraviy korruptsiyaga qarshi tizim tuzilishining aktualligi va uning qonunchilik talablari, shu jumladan, xalqaro standartlar talablariga muvofiqligi monitoringi	Doimiy ravishda						
<b>Korruptsiyaga qarshi kurashish samaradorligini baholash</b>								
2.	OAV monitoringi	Doimiy ravishda						
3.	Jamiyat xodimlarining korruptsiyaga qarshi asosiy tamoyil va talablardan xabardorligi monitoringi	Har yarim yilda						
4.	Korruptsiyaga qarshi dasturlar, yo‘l xaritalari ijrosi ustidan nazorat	Har chorakda						
5.	Jamiyatdagi korruptsiyaga qarshi talablar va tartib-taomillarga rioya etilishi ustidan nazorat	Har chorakda						



**“O‘ZTRANSGAZ” AJ VA UNING TARKIBIY  
TUZILMALARIDA KORRUPSIYAGA QARSHI  
KURASHISH TARTIB-TAOMILLARNING  
SAMARADORLIGINI  
MONITORING VA NAZORAT QILISH  
USLUBIYOTI**

**UTGH  
00154269-72:2026**

**JO‘NATMALAR RO‘YXATI**

<b>UTGH 00154269-72:2026</b> Hujjat shifri	_____	_____
	Tahrir raqami	Amalga tatbiq qilish sanasi
Jo‘natiladigan hujjat nomi	<b>“O‘ZTRANSGAZ” AJ VA UNING TARKIBIY TUZILMALARIDA KORRUPSIYAGA QARSHI KURASHISH TARTIB-TAOMILLARNING SAMARADORLIGINI MONITORING VA NAZORAT QILISH USLUBIYOTI</b>	
<b>T/r</b>	<b>Hujjat jo‘natiladigan bo‘linma / mansabdor shaxsning nomi</b>	
1	“O‘ztransgaz” AJ ijroiya apparati departamentlari, mustaqil bo‘limlari va xizmatlari	
2	“O‘ztransgaz” AJ tarkibiy tuzilmalari va tashkilotlari	
3	“O‘ztransgaz” AJ tarkibiy bo‘tuzilmalari va tashkilotlari bo‘ysunuvidagi bo‘limlar, xizmatlar, sexlar, uchastkalar va b.	